

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.03/2025.27.12.T.15.02 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY
KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXMADJANOV SUXROB BAXTIYOR O'G'LI

**PILTALASH MASHINASI TA'MINLASH SILINDRI KONSTRUKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar, robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan– 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
технических наук**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Axmadjanov Suxrob Baxtiyor o'g'li

Piltalash mashinasi ta'minlash silindri konstruksiyasini
takomillashtirish va parametrlarini asoslash 5
.....

Ахмаджанов Сухроб Бахтиёр угли

Совершенствование конструкции питающего цилиндра
лентичной машины и обоснование его параметров 25
.....

Axmadjanov Suxrob Baxtiyor ugli

Improvement of the feeding cylinder design of the draw frame
machine and substantiation of its 49
parameters.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.03/2025.27.12.T.15.02 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY
KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXMADJANOV SUXROB BAXTIYOR O'G'LI

**PILTALASH MASHINASI TA'MINLASH SILINDRI KONSTRUKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar, robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan– 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6176 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdtu.uz) (va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qorabayev Sherzod Ahmadjanovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ergashev Jamoliddin Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Matismailov Saypila Lolashbayevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "25" avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7-uy. Tel.: (99869) 228-76-71, faks: (99869) 228-76-75; e-mail: info@namdtu.uz. Namangan davlat texnika universitetida 3-binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (208-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7-uy. Tel: (99869) 228-76-71 Faks: (99869) 228-76-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "11" avgust kuni tarqatildi.
(2026 yil "09" iyuldagi 7/2-raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Maxkamov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.A. Mahsudov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

A.A. Umarov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Jahonda to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari assortimentini kengaytirish, ip va ipdan tayyorlanadigan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari, barqarorligi va texnologik ishonchliligini oshirish hamda ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy to'qimachilik sanoatida yuqori sifatli yarim mahsulotni barqaror parametrlar bilan shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologik mashinalar va ularning ishchi organlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Rivojlangan chet el mamlakatlarida, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Xitoy¹ kabi davlatlarda sifati va fizik-mexanik xossalari yuqori bo'lgan ip ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lib, ularda to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash uchun texnologik jarayonlarni boshqarish usullarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, zamonaviy takomillashgan texnologik mashinalarning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan pitalash mashinasida sifatli pilta olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, piltaning barqaror sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashdagi texnologik jarayonlarida yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan yangi usullarini yaratish, pitalash mashinasining ta'minlash silindrini yangi konstruktiv yechimlar asosida takomillashtirish hamda uning ishchi parametrlarini ishlab chiqarish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur ip olish jarayonida pitalash mashinalarining texnik darajasi va ularning ishchi organlari konstruksiyasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, piltaning sifat ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish va texnologik jarayonlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida pitalash mashinalarida qo'llaniladigan ta'minlash silindrlarining konstruktiv yechimlari hamda ularning ish parametrlarini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Yarim tayyor mahsulot olishda texnologik jarayonlarning samaradorligini oshiradigan yuqori samarador texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi² da, jumladan, «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulishini oshirishga

¹ https://www.textileworld.com/textile-world/2026/06/results-of-the-38th-itmf-global-textile-industry-survey-bottoming-out-cautious-recovery/?utm_source

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish...» bo'yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, piltalash mashinalarining ta'minlash tizimini takomillashtirish orqali piltaning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash va to'qimachilik mahsulotlarining sifatini oshirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2022 yil 21 yanvardagi PF-53-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020 yil 5 maydagi PF-5989-son To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari, 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida» gi, 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408-son «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tolalar xususiyatlari va tizim parametrlarining kombinatsiyasini cho'zish kuchi va ip sifatiga ta'sirini tahlil qilish, cho'zish zonasining texnologik parametrlarini optimallashtirish orqali ipdagi notekislik, nuqsonlar va uzilish sonini kamaytirish, tolalar ingichkaligi va cho'zish darajasi nisbatining o'zaro ta'siri natijasida cho'zish kuchining chegaralarini aniqlash, piltalash mashinasining cho'zish zonasida amalga oshiriladigan texnologik sozlamalarning ip sifatiga ta'sirini o'rganish, piltalash mashinasining pastki slindrlar oralig'ini o'zgartirish orqali paxta ipi sifatiga ta'sirini o'rganish, kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Graham, Bragg, Balasubramanian, S.M. Ishtiaque, Yasemin Aydogmus Korkmaz, Karthikeyan M. Ramasamy, Abdulsalam Bagwan, Suresh Kumar, A.Gupta, Sh.Aggarwal , S. Klein, G. Grosberg, T. Behera, A.A. Chishoim, M. Saha, H. Stalder, K.P. Chellamani va boshqalar.

Piltalash mashinasining chiqarish tezligini tahlil qilish, piltalash mashinasining cho'zish zonasida valiklarning yuzasi va ularning diametrini tolalarning harakat trayektoriyasiga bevosita ta'sirini o'rganish, piltalash mashinasi texnologik parametrlarini optimallashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilashga O'zbekistonning taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: Jumaniyazov Q.J., Ibragimov X.X, Gafurov K.G., Burnashev R.Z.,

Matismailov S.L., Amzayev L.A. Meliboyev U.X., Mirzaboyev B., Parpiyev X., Azizov I.R., Tojimirzayev S.T. va boshqalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, piltalash mashinasi ishchi parametrlarini yaxshilash, mahsulot sifatini hamda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, piltalash mashinasining cho'zish zonasini optimallashtirish, pilta sifatiga ta'sir etuvchi fizik-mexanik omillarni tahlil qilish, piltalash mashinasida elektrodvigatel tezligini SCADA orqali monitoring qilish va PID bilan boshqarish jarayonini tahlil qilish kabi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlarining asosiy yo'nalishlari ro'yxatiga kiritilgan va Namangan davlat texnika universiteti ilmiy -tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Piltalash mashinasi ta'minlash silindri konstruksiyasini takomillashtirish va parametrlarini asoslash orqali mahsulot sifatini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

piltalash mashinasida cho'zish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar-silindrlar oralig'i, valik bosimi, riflya qiyalik burchagi, cho'zish tezligi, pilta chiziqli zichligi va tolalar xossalarining mahsulot sifatiga ta'sirini aniqlash.

pilta tolalar tutamini markazlashtirish va cho'zish zonasida barqaror yo'naltirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan riflyali ta'minlash silindri konstruksiyasini ishlab chiqish.

riflyali silindr o'yiqlarining qiyalik burchagi, profil shakli va sirt geometriyasining pilta harakati, bosim kuchi, ishqalanish kuchi va taranglik holatiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslash.

silindrning burchak tezligi, cho'zish tezligi va valik bosimining pilta strukturaviy holatiga ta'sirini aniqlash hamda ularning optimal ishlash chegaralarini belgilash.

pilta sifat ko'rsatkichlari - massa bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, qirqimlar bo'yicha notekislik, chiziqli zichlik barqarorligi hamda keyingi jarayonda olinadigan ip sifat ko'rsatkichlarini eksperimental aniqlash.

riflya qiyalik burchagi, silindrlar orasidagi cho'zilish miqdori va valik bosimining pilta notekisligiga ta'sirini matematik-statistik usullar yordamida baholash.

takomillashtirilgan riflyali silindrni qo'llash natijasida pilta, pilik va ip sifat ko'rsatkichlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarni mavjud konstruksiya natijalari bilan solishtirish.

piltalash mashinasida tezlikni monitoring qilish va boshqarish jarayonining mahsulot sifatiga ta'sirini baholash, SCADA va PID boshqaruv elementlarining texnologik barqarorlikdagi o'rnini aniqlash.

taklif etilgan konstruktiv yechimni ishlab chiqarishga joriy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida RSB-D 45 rusumli pitalash mashinasi, pitalash piltasi, ip namunalari hamda pitalash mashinasi yuritish mexanizmlari olingan.

Tadqiqotning predmetini pitalash mashinasi ta'minlash qismidagi riflyali silindrlar o'yiqlarini turli burchak ostida tayyorlash orqali pitalash piltasi notekisligini kamaytirish, takomillashgan konstruksiyadagi pitalash mashinasi yordamida ishlab chiqarilgan pilta va keyingi jarayonlarda olingan pilik hamda ip sifatini yaxshilash jarayonlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida to'qimachilik mahsulotlarini sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning dasturiy tahlili, nazariy mexanika, statistik va matematik hisoblash, PID regulyator asosida boshqarish konsepsiyasi, SCADA monitoringi va turg'unlik tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tolalar harakatining mexanik qonuniyatlari hamda cho'zish zonasidagi kuchlar taqsimoti tahlili asosida pitalash mashinasi ta'minlash silindrining turli qiyalik burchakli riflya profiliga ega yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

piltaning riflyali silindr o'yiqlari bo'ylab harakatida hosil bo'ladigan bosim va taranglik kuchlarining riflya qiyalik burchagiga bog'liqligini ifodalovchi tenglamalar ishlab chiqilgan;

cho'zish jarayonida tolalar uchlari tekislanishini va piltaning bir tekisda cho'zilishini ta'minlash uchun turli qiyalik burchagiga ega riflyali silindr bilan pilta tolalari orasidagi ishqalanish kuchini silindrning burchak tezligiga bog'liqlik tenglamalari olingan;

to'la omilli tajriba natijalari asosida cho'zish silindri riflyalarining qiyalik burchagi, I va II silindrlar orasidagi cho'zilish miqdori hamda valiklarga berilgan bosimni maqbul qiymatlari asosida piltaning massa bo'yicha variatsiya koeffitsientini aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

takomillashgan riflyali silindrlar yordamida ishlangan model va grafik tahlillar to'qimachilik mashinasozligida yangi avlod cho'zish tizimlarini loyihalashda samarali ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi, o'tkazilgan nazariy modellashtirishlar, kuchlarning tarqalish trayektoriyasi va cho'zish tezligiga bog'liq deformatsion parametrlar asosida ilg'or pitalash texnologiyasini ishlab chiqish uchun asos yaratishi aniqlangan;

O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyatida joylashgan "Tubo Smart Textile" MCHJ sharoitida o'tkazilgan tajribalarda cho'zish silindri riflyalarining qiyalik burchagi 10° va I-II silindrlar orasidagi cho'zilish miqdori 1,3 mm bo'lgan variantda piltaning massa bo'yicha umumiy variatsiya koeffitsiyenti 2,71% ni tashkil etib, Uster Statistik 2023 bo'yicha 25–50% lik sifat sinfiga oshirishga erishilgan;

1 metrlik qirqim bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti eng yaxshi natijada 0,49% ni tashkil etib, bu Uster Statistik 2023 bo'yicha 5–25% sinfiga to'g'ri kelishi va tolalarning mahalliy darajada bir tekis taqsimlanganligini ko'rsatgan. 3 metrlik qirqim bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 0,34% ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich Uster Statistik 2023 bo'yicha 5% lik sinfga yaqinlashgani va

piltaning o'rta masofali barqarorligi yuqori darajada bo'lishiga erishilgan;

to'liq faktorial eksperiment asosida olingan regression tenglamalar Fisher mezonini bo'yicha adekvatligi tekshirilib, riflya burchagi (X_1), cho'zilish miqdori (X_2) va bosim (X_3) omillarining piltaning massa va qirqim bo'yicha notekisligiga ta'siri statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlangan;

yangi konstruksiyadagi riflyali silindrni qo'llash natijasida ip sifatining yaxshilanishi hisobiga 1 kg ipdan olinadigan sof foyda 28,06 so'mdan 32,94 so'mga oshishiga, hisob-kitoblarga ko'ra, SCADA tizimini joriy etish natijasida piltalash jarayonida yiliga 32400 kVt soat elektr energiya tejaldi, bu esa 29,16 million so'm iqtisodiy samaradorlikni ta'minlangan yillik iqtisodiy samaradorlik esa 183,438 mln. so'm bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumiy xulosalar, piltalash mashinasining yangi konstruksiyadagi riflyali silindri qo'llanilib olingan piltaning ratsional qiymatlari bo'yicha tenglamalarini olininganligi, olingan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni zamonaviy sinov laboratoriya dastgohlarida tekshirilganligi, nazariy va amaliy olingan natijalarni bir-biriga o'zaro mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati piltalash mashinasida yangi konstruksiyadagi riflyali silindr yaratilganligi hamda yangi qurilmada olinadigan mahsulotning harakat trayektoriyalari va ratsional qiymatlari bo'yicha tenglamalari tuzilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini asoslanganligi bilan izohlanadi.

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yangi konstruksiyadagi riflyali silindr bilan jihozlangan piltalash mashinasi qo'llanilishi orqali mahsulot sifatini yaxshilanganligi, olingan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning notekislik va boshqa bir qator sifat ko'rsatkichlari bo'yicha yaxshilanganligi, piltalash mashinasi asosiy parametrlarini mahsulot sifatiga ta'sirini tahlil qilinganligi, optimal parametrlarni tanlash orqali mahsulot sifatini yaxshilash hamda mashina ishlash ishonchliligini oshirilganligini tajribalar natijasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Takomillashgan riflyali silindr bilan jihozlangan piltalash mashinasini qo'llash orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

piltalash mashinasining yangi konstruksiyadagi riflyali silindr mexanizmi Namangan shahridagi «Namangan paxta teks» MCHJ klaster «Oqtosh tekstil» MCHJ korxonalarida ishlab chiqarishga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 2026 yil 14 maydagi №01/06-668 son ma'lumotnomasi). Natijada yangi konstruksiyadagi riflyali silindrni qo'llash orqali olingan piltaning massa bo'yicha umumiy variatsiya koeffitsiyenti 2,71 % ni tashkil qilib, Uster Statistik 2023 bo'yicha 25-50% li ko'rsatkichlarga yetishiga erishilgan hamda ip sifati yaxshilanishi hisobiga korxonada kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 183,438 mln so'mni, bir yilda bitta chiqarish qismida esa 6091 so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va

muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqolalar, jumladan 3 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishni aprobatyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"Piltalash mashinasining cho'zish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va ularning ilmiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida respublika to'qimachilik sanoatining rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari, zamonaviy piltalash mashinalari va ularning texnologik imkoniyatlari, piltalash mashinasining cho'zish zonasini optimallashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda pilta sifatiga ta'sir etuvchi fizik-mexanik omillar va ularning statistik tahliliga qaratilgan mavjud ilmiy va amaliy ishlanmalar tahlillari keltirilgan. Shuningdek, halqali yigirishda ta'minlovchi piltaning strukturaviy tuzilishi va tozaligining ip sifatiga ta'sirini baholash to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Takomillashtirish riflyali silindrlarning cho'zish jarayonida piltaga ko'rsatadigan mexanik ta'sirini nazariy tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobda Piltalash mashinasi takomillashtirilgan silindr riflyalari ta'sirida piltaning nazariy hisob tahlili keltirilgan. Shuningdek, piltani yo'naltiruvchi riflya ta'siridagi cho'zishning nazariy tahlili hamda silindr burchak tezligining va cho'zish tezligining piltaning strukturaviy holatiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Bobda dastlab piltaning riflyali silindrlar orasida harakatlanishini ifodalovchi kuchlar – taranglik kuchi T , ishqalanish kuchi F , yo'nalish kuchi va markazdan qochma kuchlarning ta'siri modellashtirildi. Bu kuchlar sistemada uch o'lchamli harakatga sabab bo'lishi mumkinligi uchun ularning OX va OY o'qlari bo'yicha taqsimlanishi hisobga olindi.


So'ngra, riflyali silindrlarning qiyalik burchagi $\alpha = 8^\circ, 10^\circ, 12^\circ$ qiymatlarida piltaning tarangligi, deformatsiyasi, cho'zish tezligi va strukturaviy holati grafiklar asosida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, $\alpha = 10^\circ$ da piltaning deformatsiyalanishi optimal, ya'ni bir tekis taqsimlanadi va notekislik ko'rsatkichlari kamayadi.

Silindrning riflya o'yiqlarini ratsional burchakka burish yo'li bilan tolalarni markazga yo'naltirish orqali piltaning sifat ko'rsatkichlarini orttirish, tukdorligi, neps ko'rsatkichlarini kamaytirish orqali sifatli pilta olishning nazariy tahlilini keltiramiz (1-rasmga qarang).



1-rasm. Piltalash mashinasida tavsiya qilinayotgan silindrning geometrik sxemasi

Uchlari to'g'rilangan piltalar hosil bo'lishdagi yo'naltiruvchi riflya o'yiqlari ta'siridagi piltaning harakatini dinamik tahlili keltirilgan hamda markazga yo'naltirilgan tolalarning natijasida piltalarni bir tekisda uzatish orqali notekisligini kamaytirishdagi masalasi ko'rib chiqilgan. Dalamber prinsipidan foydalanib ko'rilayotgan masalani quyidagicha ifodalaymiz.



2-rasm. Riflya o'yiqlaridagi piltaning harakat sxemasi.

Yo'naltiruvchi riflyani burchaklari sirtidan o'tuvchi piltaning harakatini ifodalaymiz (2-rasmga qarang).

Riflyani burchaklari sirtidan o'tuvchi piltaning α yo'nalishidagi harakati

$$\dot{\vartheta}_x = \dot{S} \cos \alpha$$

$$\dot{\vartheta}_y = \dot{S} \sin \alpha$$

Bu yerda: S -riflyani sirtining uzunligi, α -og'ish burchagi.

Riflyani burchak ostida yo'naltiruvchi silindrlar orasidan o'tuvchi piltaning harakat differensial tenglamasini tuzamiz

$$m \frac{d\vartheta}{dx} = \frac{dT}{dx} - \mu P(x) \quad (1)$$

(1) differensial tenglamani sodda ko'rinishga keltiramiz:

$$\frac{d\vartheta}{dx} = \frac{1}{m} \frac{dT}{dx} - \frac{\mu}{m} P(x) \quad (2)$$

(2) differensial ifodadan silindrlar orasidan o'tuvchi piltaning massasi $m = \rho \cdot A$ ga teng bu yerda ρ - piltaning zichligi, A -kesim yuzasi.

$$\rho \cdot A \cdot \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{dT}{dx} - \mu P(x) \quad (3)$$

(3) differensial tenglamadan $\vartheta = \vartheta(x, t)$ deb qarasak u holda, (3) differensial tenglamaga oddiy holatda statsionar yechim quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{dT}{dx} - \mu P(x) = 0 \Rightarrow \frac{dT}{dx} = \mu P(x) \quad (4)$$

(4) ifoda piltaning silindrlar orasidan o'tishdagi tarangligini o'zgarishini ifodalaydi. Bu (4) tenglikni integrallab taranglik kuchini aniqlaymiz:

$$T(x) = T_0 + \mu \int_{x_0}^x P(S) ds \quad (5)$$

(5) tenglikdan piltani silindrlarga kirishda va chiqishdagi taranglik kuchini o'zgarishini pilta uzunligi bo'yicha va piltaning o'yiqlari α burchak ostidagi piltaning differensial ifodasini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\rho A \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{dT}{dx_0} - \mu P(S) \cos \alpha \quad (6)$$

(6) ifodadagi piltaning taranglik kuchini ishqalanish kuchi orqali bog'lab hisoblaymiz:

$$F_{ish} = \mu \cdot P(x) \quad (7)$$

(7) agar taranglik kuchi silindrlar orasidan o'tishdagi qamrash burchagi bo'yicha o'zgarishi:

$$T(x) = T_0 e^{\varphi \mu} \quad (8)$$

(8) tenglikdan taranglik kuchi bilan bosim kuchini bog'liqlik ifodasini aniqlaymiz:

$$P(x) = \frac{1}{\mu} \varphi \cdot T_0 e^{\varphi \mu} \quad (9)$$

(9) ifodani riflya o'yiqchalari burchak ostidagi piltaning x va y o'qlari bo'yicha bosim kuchini aniqlaymiz:

$$\begin{cases} P_x = P(x) \cos \alpha \\ P_y = P(x) \sin \alpha \end{cases} \quad (10)$$

(10) tenglikka (9) ifodani qo'yib hisoblaymiz:

$$\begin{cases} P_x = \frac{1}{\mu} \varphi T_0 e^{\varphi \mu} \cos \alpha \\ P_y = \frac{1}{\mu} \varphi T_0 e^{\varphi \mu} \sin \alpha \end{cases} \quad (11)$$

(11) tenglik ya'ni piltaning silindrlar orasidan o'tishdagi og'ish burchak bosim kuchini o'zgarishini (2) ifodaga qo'yib piltaning taranglik kuchini aniqlaymiz:

$$\begin{cases} m \frac{d\vartheta}{dx} = \frac{dT}{dx} - T_0 \varphi e^{\varphi \mu} \cos \alpha \\ m \frac{d\vartheta}{dy} = \frac{dT}{dy} - T_0 \varphi e^{\varphi \mu} \sin \alpha \end{cases} \quad (12)$$

$$m \frac{dS}{dx} \cos \alpha = \frac{dT}{dx} - T_0 \varphi e^{\varphi \mu} \cos \alpha$$

$$T(x) = m \cdot \cos \alpha \cdot S(x) + \int T_0 \cdot e^{\varphi \cdot \mu} \cdot \cos \alpha \cdot dx \quad (13)$$

(13) ifodadan $S(x) = x$ bo'lsa, u holda

$$T(x) = m \cdot x \cdot \cos \alpha + \frac{T_0 \cdot \cos \alpha}{\varphi} \cdot e^{\varphi \cdot \mu} + C \quad (14)$$

(14) tenglikdagi C integral boshlang'ich shartdan foydalanib aniqlaymiz:

$$T(0) = 0 \Rightarrow C_1 = -\frac{T_0 \cos \alpha}{\varphi}$$

$$T(x) = m \cdot x \cdot \cos \alpha + \frac{T_0 \cdot \cos \alpha}{\varphi} (e^{\varphi \cdot \mu} - 1) \quad (15)$$

$$T(y) = m \cdot y \cdot \sin \alpha + \frac{T_0 \cdot \sin \alpha}{\varphi} (e^{\varphi \cdot \mu} - 1) \quad (16)$$

(11), (15) va (16) ifodalardan yo'naltiruvchi riflyadan o'tuvchi piltaning yo'naltiruvchi taranglik kuchlarini o'zgarishi va bosim kuchlarini o'zgarishini Maple dasturi orqali grafiklarda tahlili keltirilgan.

2-rasmda keltirilgan riflya o'yiqa uzunligini S deb belgilash kiritilgan, bu uzunlikni OX va OY o'qi bo'yicha proyeksiyalari quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases} X = S \cdot \cos \alpha \\ Y = S \cdot \sin \alpha \end{cases} \quad (17)$$


(17) tengliklarni (11), (15) va (16) ifodalarga qo'yib riflyadan o'tishdagi piltaning harakati natijasidagi taranglik va bosim kuchlarini aniqlaymiz:

$$\begin{cases} P_x = \frac{1}{\mu} \cdot \varphi \cdot T_0 \cdot e^{\varphi \cdot \mu} \cdot \cos \alpha \\ P_y = \frac{1}{\mu} \cdot \varphi \cdot T_0 \cdot e^{\varphi \cdot \mu} \cdot \sin \alpha \end{cases} \quad (18)$$

$$\begin{cases} T_x = m \cdot S \cdot \cos \alpha + \frac{T_0 \cdot \cos \alpha}{\varphi} (e^{\mu \cdot \varphi} - 1) \\ T_y = m \cdot S \cdot \sin \alpha + \frac{T_0 \cdot \sin \alpha}{\varphi} (e^{\mu \cdot \varphi} - 1) \end{cases} \quad (19)$$

(18) va (19) ifodalardan foydalanib o'yiqa uzunligi S bo'yicha bosim va

taranglik kuchlarini S bo'yicha bosim va taranglik kuchlarini o'zgarishini Maple dasturi orqali tahlili keltirilgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. Takomillashgan riflyadan o'tishdagi piltaning OX o'qi bo'yicha bosim kuchini o'yiqla og'ish burchagini turli xil $\alpha_1 = 8^\circ$, $\alpha_2 = 10^\circ$, $\alpha_3 = 12^\circ$ qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi

3-rasmda takomillashgan rifli silindrdan o'tish jarayonida piltaning OX o'qi bo'yicha harakatidagi bosim kuchining (P_x) φ – ya'ni qamrash burchagiga bog'liq o'zgarishi keltirilgan. Grafikda uchta turli rif burchagi uchun ($\alpha_1 = 8^\circ$, $\alpha_2 = 10^\circ$, $\alpha_3 = 12^\circ$) bosim kuchining grafigi chizilgan: 1-qator (qizil) $\alpha_1 = 8^\circ$, 2-qator (ko'k) $\alpha_2 = 10^\circ$, 3-qator (qora) esa $\alpha_3 = 12^\circ$ burchakka mos keladi.

Yuqoridagi nazariy tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, takomillashgan riflyali silindrlar yordamida ishlangan model va grafik tahlillar to'qimachilik mashinasozligida yangi avlod cho'zish tizimlarini loyihalashda samarali ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining **“Pitalash mashinasining cho'zish asbobi moslamasi ishining tadqiqoti”** deb nomlangan uchinchi bobida pitalash piltaning sifat ko'rsatkichlarini baholash, pitalash piltasi sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarning matematik-statistik tahlili va optimal qiymatlarini aniqlash, pitalash mashinasida tezlikni SCADA orqali monitoring va PID bilan boshqarish, pitalash mashinasi tezlik boshqaruv tizimining matematik modeli va turg'unlik tahlili hamda pitalash mashinasining cho'zish asbobi riflyali silindrlarning o'yiqlarini o'zgartirish natijasida olingan iplarning iqtisodiy samaradorligi hisobi yoritilgan.

Eksperimental tadqiqotlar “Tubo Smart Textile” MChJ (Namangan viloyati, Namangan shahri) korxonasining ishlab chiqarish sharoitida SB-D15 pitalash mashinasida olib borildi.

Pitalash pitalari “yaxshi” toifasiga kiruvchi I navdagi 4-tipli, “Namangan-77” seleksiyasiga mansub paxta tolalaridan ishlab chiqarilgan.

Texnologik jarayon paxta tolalarini dastlabki mexanik ishlovdan o'tkazish bosqichi bo'lgan SAURER Autocard SC-6M tarash mashinasida chiqish mahsulotining chiziqli zichligi 4920 teks (Ne 0,120) bo'lib, ishchi organlarining chiziqli tezligi 220 m/min ni tashkil etadi. Rieter SB-D15 va RSB-D145 pitalash mashinalarida pilta qo'shish va cho'zish jarayoni amalga oshirilib tolalar massasining tekislanishini ta'minlab, piltaning strukturaviy barqarorligini oshiradi. Zinser FL-668 piliklash mashinasida mahsulotning chiziqli zichligini

472 teks (Ne 1,25) gacha kamaytirilib oxirgi bosqichda Zinser RM-350 halqali yigirish mashinasida 27 teks (Ne 21,5) ip olinadi.

Cho'zish qurilmasining sozlash parametrlarini optimallashtirish masalasini hal qilish maqsadida to'liq faktorli eksperiment (TFE) o'tkazildi. Ushbu eksperimentda jami $3^2=9$ ta tajriba, ya'ni faktorlarning barcha darajalari o'zaro kombinatsiyalangan to'liq tekshiruv amalga oshirildi. To'qimachilik tadqiqotlarida esa, odatda, to'liq kombinatorik tahlil eng samarali optimallashtirish usuli sifatida tanlanadi. Faktorlarning o'zgarish darajalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Omillarning o'zgarish darajalari

Omillar	Kodlangan qiymat			O'zgarish oralig'i
	-1	0	+1	
Cho'zish silindri riflyalarining qiyalik burchagi	8°	10°	12°	2°
I va II silindrlar orasidagi cho'zilish miqdori	1,3	1,4	1,5	0,1
Valiklarga berilgan bosim	310	320	330	10


Chiquvchi omillar sifatida Y1– Pitalash piltasining massa bo'yicha umumiy variatsiya koeffitsienti, Y2- Pitalash piltasining qirqim bo'yicha variatsiya koeffitsienti, 1 m lik, % va tanlab olindi. Regressiya koeffitsientlarini aniqlashda va ularni ahamiyatlilikini tekshirishda Styudent, matematik modelning adekvat yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher mezonlaridan foydalanildi.

Tadqiqotlarda b_{13} b_{23} b_{22} b_{33} koeffitsienti tadqiq etilayotgan parametrlar uchun ahamiyatsiz ekanligi ma'lum bo'ldi va ahamiyatsiz koeffitsientlarni chiqarib tashlaymiz, hamda ahamiyatli koeffitsientlar bilan tenglamani qayta yoziladi:


$$Y_{R1} = 2,8 + 0,04 * X_1 + 0,06 * X_2 + 0,11 * X_3 + 0,07 * X_1 * X_2 + 0,21 * X_1^2$$



a)



b)



c)

4-rasm. Omillarning chiquvchi parametrga ta'sir grafiklari: a) 1- va 2-omillar; b) 2- va 3-omillar; c) 1- va 3-omillar.


4.a-rasmdagi grafikdan ko'rinadiki, riflya burchagi 10° bo'lganda va cho'zilish miqdori 1,3 mm ga yaqinlashganda Y_1 minimal qiymatga ($\approx 2,7-2,8$ %) ega bo'ladi. Bu sharoitda tolalar optimal darajada taralib, piltaning massaviy bir tekisligi ta'minlanadi. Burchak 8° yoki 12° bo'lganda va cho'zilish 1,4 yoki 1,5 mm ga og'ganda mexanik zo'riqish ortib, Y_1 qiymati 3,10–3,20 % gacha oshadi.

4.b-rasmdagi grafikdan ko'rinadiki, cho'zilish miqdori 1,3 mm va bosim 310 Pa bo'lganda piltaning massa bo'yicha notekisligi eng kichik bo'ladi ($Y_1 \approx 2,63$ %). Bosim 330 Pa ga oshganda tolalar siqilishi kuchayib, Y_1 2,98 % dan yuqoriga ko'tariladi. Bosimning 320 Pa ga tushirilishi esa tolalarning yetarli ushlanmasligiga olib kelib, notekislikni oshiradi.

4.c-rasmdagi grafikdan ko'rinadiki, riflya burchagi 10° va bosim 310 Pa kombinatsiyasida piltaning massaviy barqarorligi maksimal bo'lib, Y_1 minimal qiymatga ega. Burchakning 12° gacha oshishi yoki bosimning 330 Pa ga yetishi tolalarning ortiqcha deformatsiyasini keltirib chiqaradi va massa bo'yicha variatsiya koeffitsientining 3,15–3,20 % gacha ortishiga sabab bo'ladi.


Taklif etilayotgan riflya silindrning mexanik mustahkamlik, deformatsiya chegarasi va boshqa parametrlarining optimal nisbatini ta'minlashga qaratilgan. Mustahkamlik tahlili yordamida riflya silindrning kuchlanish va siljish holatlari baholanadi, eng katta kuchlanish zonalari aniqlanadi hamda material tanlovi asoslanadi.

Ixtiyoriy detalni muhandislik hisoblashda uni statik tahlil qilishdan boshlanadi. Taklif etilayotgan riflya silindr uchun statik hisobni olib boramiz.





5-rasm. Taklif etilayotgan riflya silindrning umumiy ko'rinishi

Taklif etilayotgan riflya silindr uchun material tanlanadi, o'rnatish sharti qo'yiladi, tashqi kuchlar belgilanadi va ularning qiymatlari kiritiladi. Natijalar rangli epyuralar ko'rinishida tasvirlanadi (6-7 a,b,c-rasmlarga qarang).




6-rasm. Simli sirtning kuchlanish epyurasi



a)

b)



c)

7-rasm. Taklif etilayotgan riflyali silindrning mustahkamlik zaxirasini aniqlash epyuralari:
a) ko'chish epyurasi, b) deformatsiya epyurasi, c) mustahkamlik zaxirasi

Epyuralardan ko'rinib turibdiki, riflya silindrga optimal tanlab olingan 310 Pa kuchlanish berilgan, ko'chish – 0,00000047 mm ni, deformatsiya – 0,0000002 ni, eng kichik mustahkamlik zaxirasi – 31,639 ni tashkil qildi.

Mazkur tadqiqotda 700 ayl/min tezlikni PID regulyator asosida boshqarish konsepsiyasi, SCADA monitoringi va turg'unlik tahlili yagona tizim sifatida bayon qilindi.

Boshqaruv tizimining yuqori darajasida SCADA operator interfeysi orqali boshqaruv va monitoring vazifasini bajaradi. Operator SCADA ekranida setpoint tezlikni kiritadi, ishga tushirish va to'xtatish buyruqlarini beradi hamda jarayon holatini kuzatadi. SCADA foydalanuvchiga qulay bo'lishi uchun indikatorlar, ogohlantirishlar (alarm), trend grafiklar va holat bayroqlari bilan ta'minlanadi. Bu interfeys texnologik jarayonni real vaqt rejimida baholash va kerakli vaqtda aralashish imkonini beradi. Aynan piltalash kabi uzluksiz jarayonda operatorning trendlarni ko'rishi muhim, chunki tezlikdagi kichik tebranishlar ham mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatadi.



8-rasm. Piltalash mashinasi SCADA bosh ekrani (HMI interfeysi)

SCADA va pastki darajadagi boshqaruv qurilmalari o'rtasida PLC markaziy rol o'ynaydi. PLC setpointni qabul qiladi, sensorlardan real tezlik signallarini oladi va regulyatsiya algoritmi (PID) bo'yicha boshqaruv signalini shakllantiradi. Ushbu signal VFD ga yuboriladi va VFD motorni kerakli chastotada ishlatadi. Natijada motor tezligi o'zgaradi va o'lchangan tezlik qayta PLC ga uzatiladi, ya'ni tizim yopiq kontur bo'lib ishlaydi. Bu arxitektura boshqaruvning moslashuvchanligi va servis qulayligini oshiradi, chunki parametrlar PLC/SCADA orqali tez sozlanadi.

Tezlikni o'lchash uchun amaliy tizimda enkoder, tachogenerator yoki VFD ning ichki tezlik baholash funksiyasi qo'llanilishi mumkin. O'lchash sifati yuqori bo'lsa, regulyator xatolikni tez va aniq ko'radi hamda tebranishlar kamayadi. Shu bilan birga, motor toki, harorat yoki vibratsiya kabi qo'shimcha parametrlar ham diagnostika uchun foydali bo'lishi mumkin. SCADA trend

oynasida tezlikning vaqt bo'yicha o'zgarishi qayd etilib boriladi va sinov natijalarini tahlil qilishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Trend oynasi keyinchalik PID sozlashni aniqroq qilishga ham yordam beradi.

Piltalash mashinasida elektrmotor tezligini SCADA asosida monitoring qilish va PID regulyator yordamida yopiq konturda boshqarish konsepsiyasi asoslab berildi. Roliklar orasidagi tortish jarayonida yuzaga keladigan yuklama o'zgarishlari tezlikning beqarorlashuviga olib kelishi mumkinligi ko'rsatildi. SCADA-PLC-VFD arxitekturasida operatorga jarayonni real vaqt rejimida kuzatish, setpoint kiritish va tezkor aralashish imkonini berishi bilan ahamiyatli ekanligi asoslandi.



9-rasm. SCADA trend/monitoring oynasi (tezlik grafigi va holat indikatorlari)

Tezlikni aniq o'lchash va yopiq kontur boshqaruv orqali piltaning bir xilligi hamda uzilishlar xavfini kamaytirish mumkinligi ilmiy jihatdan izohlandi. Natijada SCADA va PID asosidagi boshqaruv tizimi piltalash jarayonining texnologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligi aniqlandi.

Elektrmotor + VFD + mexanik uzatmalar majmuasini matematik modellashtirishda amaliy yondashuv sifatida birinchi tartibli inertsia modeli qo'llaniladi. Bu model tezlikning darhol o'zgarmasligi, balki ma'lum vaqt doimiysi bilan o'zgarishini ifodalaydi. Piltalash mashinasida tezlik konturi odatda tez ishlashi kerak, shuning uchun vaqt doimiysi 0.3-1.0 s diapazonda bo'lishi mumkin. Model kirishida chastota (Hz), chiqishida tezlik (ayl/min) qabul qilinadi, bu esa VFD boshqaruv signallariga juda mos keladi. Shunday qilib, tizim uchun soddalashtirilgan, lekin amaliy jihatdan ishonchli matematik asos yaratiladi.

$$G(s) = \frac{K_f}{Ts+1} \quad (20)$$

Setpoint tezlik 700 ayl/min deb olinsa va bu tezlik taxminan 25 Hz bazaviy chastotaga mos kelsa, chastotadan tezlikka o'tish koeffitsienti quyidagicha baholanadi. Bu qiymat texnik ma'lumotlar yoki tajriba o'lchovlari asosida aniqlashtiriladi. Muhimi, birliklar bir xil mantiqda yuritiladi: kirish Hz, chiqish ayl/min bo'lishi shart. Aynan shu joyda bazaviy chastota tushunchasi juda muhim bo'ladi, chunki PID odatda "umumiy chastota"ni emas, balki kichik tuzatishni (Δf) beradi. Agar bazaviy chastota kiritilmasa, tizim 700 ayl/min ga yetolmaydi va noto'g'ri grafik hosil bo'ladi.

$$K_f \approx \frac{700}{25} = 28 \text{ ayl/min/Hz}, T = 0.5 \text{ s}$$

Xatolik signali setpoint va real tezlik farqi orqali aniqlanadi. Xatolik musbat bo'lsa, tizim tezlikni ko'tarishga intiladi, manfiy bo'lsa pasaytiradi. Xatolik regulyatorning asosiy kirishidir va boshqaruv sifatini belgilaydi. Piltalashda xatolikni tez yo'qotish piltaning uzilishini kamaytiradi, lekin juda agressiv sozlash tebranishlarni ko'paytirishi ham mumkin. Shuning uchun xatolik va regulyator orasidagi bog'lanish aniq ifodalanadi.

